

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
SHARQFILOLOGIYASI FAKULTETI  
TURKIY TILLAR KAFEDRASI**

**SHUKUROVA KAMOLA KOMILJON QIZI**

**“CHOLIQUSHI” VA “O‘TKAN KUNLAR” ROMANLARIDAGI BADIY  
TASVIR VOSITALARINING QIYOSIY TAHLILI**

Annotatsiya: Mazkur bitiruv malakaviy ishida badiiy tasvir vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari “Choliquushi” va “O‘tkan kunlar” romanlari misolida ko‘rib chiqilgan. Asarlarda keng foydalanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, o‘xshatish kabi badiiy tasvir vositalari qiyoslasngan.

**Bajardi:** 5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (turk tili va adabiyoti) ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

**Shukurova Kamola**

**Ilmiy rahbar:** Turkiy tillar kafedrasi  
f.f.n, dots. **Lafasov O’roqboy**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. BADIY TASVIR VOSITALARI HAMDA “CHOLIQUSHI” VA “O’TKAN KUNLAR” ROMANLARI.....</b>	<b>8</b>
1.1.    O‘zbek va turk tillaridagi badiiy tasvir vositalari.....	8
1.2.    “Choliqushi” va “O’tkan kunlar” romanlari, ularda badiiy tasvir vositalari.....	23
<b>II      BOB.      “CHOLIQUSHI”      VA      “O’TKAN      KUNLAR” ROMANLARIDAGI      BADIY      TASVIR      VOSITALARINING      O’ZIGA XOSLIGI.....</b>	<b>27</b>
2.1.    “O’tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariga izoh.....	27
2.2.“Choliqushi” romanida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariga sharh.....	31
2.3. “Choliqushi” va “O’tkan kunlar” romanlarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariningqiyosiy tahlili.....	36
<b>XULOSA.....</b>	<b>41</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>43</b>

## KIRISH

*Shaxsan men shoir va adiblarni  
doimo jamiyatning oldingi safida  
yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarni  
yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan  
o'zgarishlarni hammadan avval sezib,  
ularni tas'irchan obrazlar, yorqin badiiy  
bo'yoqlar orqali yoritib bera oladigan ,  
el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi  
insonlar deb bilaman<sup>1</sup>*

### **Islom Karimov**

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu fikrlar, shubhasiz, bugungi kunning dolzarb muammolarini va hayotning ajib jumboqlarini mohirona badiiylashtira olgan yozuvchilar haqidadir.

Adabiyot ma'lum bir millatning o'ziga xos dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini mujassam etuvchi hamda ularni kelajak avlodlarga ham yetkazib beruvchi kuchdir. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov har bir asarlarida ma'naviyatga alohida urg'u berib o'tar ekanlar, 2009 yilda e'lon qilingan "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolalarida shuni ta'kidlaganlar: "Adabiyot, ijod ahli faoliyatiga baho berishda, avvalo, ularning mehnati, mahorati va iste'dodi mevasi bo'lgan asarlaridan bahramand bo'ladigan keng kitobxonlar ommasi, jamoatchilik fikriga suyanish eng haqqoniy, demokratik yondashuv ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz."<sup>2</sup>

"Adabiyot-hayotning in'ikosidir" degan qoida yozuvchilarining ijodiy tajribasida juda ko'p shakllarda namoyon bo'ladi".<sup>3</sup> Yozuvchilar hikoyalarida ham, romanlarida ham, hayot haqiqati ustalik bilan ochib beriladi. Yozuvchilar asarlarda ko'tarilgan mavzuni tasvirlashda, xususan, hayotda uchrovchi illatlarni fosh etishda turli xil vositalaridan, shuningdek, ramziy obrazlardan va har xil

<sup>1</sup>I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009, 4 b.

<sup>2</sup>O'sha manba. 4 b.

<sup>3</sup>Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: "O'qituvchi", 1986, 56 b.

majozlardan o‘rinli foydalanadilar. Ularning ijodi hayot bilan hamnafas, rostgo‘y, xalqchil va kurashchan nasrdir. Chunonchi, ular hayotning asl mohiyati haqida shu kungacha aytilmagan, lekin aytilishi shart bo‘lgan teran fikrlarni topib, ularni mahorat bilan badiiy adabiyotda aks ettiradilar. Shuningdek, shu kungacha yaratilgan hikoyalarda, romanlarda ham ma’naviy-axloqiy, hayotiy muammolar ilgari surilgan.

Respublikamiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng, butun dunyo mamlakatlari, shu jumladan yaqin sharq mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. Bu hamkorliklarning tobora mustahkamlanib borishi, sharqshunoslarga yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi va shu bilan birga zimmamizga o‘ziga xos vazifalarni yukladi. Bundan tashqari mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan katta e’tibor kelajakdagি orzularimizga erishishimizda kuchli dalda bo‘lib xizmat qiladi.

Mana shu haqiqatlarni nazarda tutib, yurtboshimiz I. A. Karimov o‘z nutqlarida shunday deb ta’kidlaydilar: “Hozirgi paytda xorijiy va sharq tillarini o‘rganish va o‘rgatishga katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallahsga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarini mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”.<sup>4</sup>

O‘zbek va turk romanchilagini kuzatar ekanmiz, adabiyotning ikki buyuk namoyondalari ko‘zga tashlanadi. Bulardan biri Abdulla Qodiriy bo‘lsa, ikkinchi turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekindir. Ular nafaqat o‘z davrining cho‘qqiga yetgan yozuvchilari, balki bugunga qadar asarlari qo‘ldan tushmaydigan, unutilmas romanlar sohiblari hisoblanadilar.

Turk adabiyotining XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmidagi davrini oltin davr deb atash mumkin. Bu davr adabiyotida katta sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Turk adabiyotida proza (hikoya,roman), dramaturgiya

---

<sup>4</sup> Karimov I. A. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent:Sharq, 1997, 8-9 b.

janrlarida ko‘plab ajoyib asarlar yaratildi, turk poeziyasida esa bir necha adabiy maktablar yuzaga keldi. Jahon adabiyotining ta’siri hamda Turkiyadagi ijtimoiy taraqqiyot natijasida maydonga kelgan bu davr adabiyotidagi so‘z ustalari o‘z asarlarida birinchi navbatda oddiy xalq hayotini, mamlakat oldida turgan muhim muammolarni aks ettira boshladilar. Ana shunday yozuvchilarning yetakchi vakillaridan biri, ilg‘or fikrli turk ijodkorlarining ma’naviy izdoshi Rashod Nuri Guntekindir.

Abdulla Qodiriy buyuk san’atkor, so‘z ustasi, xalq qahramoni. Qancha tazyiqlaru malomatlarga qaramay u o‘z so‘zini ayta olgan ulug‘ ijodkor. Uning nomini, asarlarini yo‘q qilmoqchi, xalqimizdan uni begona qilmoqchi bo‘ldilar. Hatto, biz bilgan mashhur shoiri zamonlar ham uning uchun o‘tin qaladilar... Haqiqat baribir yuzaga chiqdi. Julqunboyning asarlari, uning nomi qalblarimizda abadiyga muhrlandi. U yozgan asarlar uyimizning va qalbimizning to‘ridan joy oldi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Tasviriy vositalarning vujudga kelishi tilning pragmatik xususiyatlaridan biridir. Badiiy asarning til vositalarini o‘rganish, til boyliklari, shu jumladan yozuvchining uslubini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir. Badiiy asarda so‘z faqat ifoda vositasi bo‘lmay, balki u hayot haqiqatini obrazli ko‘rsatish, tasvirlanayotgan voqeani estetik baholash uchun ham xizmat qiladi, shu sababli so‘z badiiy matnda faqat asarning mazmunini bayon etish hodisasi bo‘lmay, ayni paytda muhim tasviriy vosita vazifasini bajaradi.

Bugungi kunga qadar “Choliqushi” hamda “O‘tkan kunlar” romanlaridagi badiiy tasvir vositalari alohida o‘rganilib, tahlil qilinmagan. Bitiruv malakaviy ishimizda dunyoga mashhur bo‘lgan ikki asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari qiyoslangan holda ko‘rib chiqiladi. Ulardagi dunyoqarashdan, mentalitetdan kelib chiqqan holda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari ko‘rilib, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar kuzatib boriladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.**A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari bugungi kunga qadar tadqiq etilgan. Asar asosida rejissor Yoldosh A’zamov tomonidan 1969-yilda kinofilm suratga olingan.Bu asar ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.Choriyeva Zamira Tirkashevnanning “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi maktublarning lug‘aviy-ma’noviy va uslubiy xususiyatlari”<sup>5</sup> mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya ishi maktublarning to‘liq va batafsil tadqiq etilganligini ko‘rsatadi. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali o‘qituvchisi Komil Jalilovning “O‘zbek tilidagi realiya so‘zlarni ingliz tilida ifodalash muammolari (“O‘tkan kunlar” filmi tarjimasi misolida)” nomli maqolasi ham asarning keng ko‘lamda ma’lum bir jabhasini tadqiq etilganligini bildiradi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani rus tiliga qilingan tarjimalari asosida f.f.n, dot.To‘lqin Saydaliyevning “Mumtoz asar matni va badiiy tarjima muammolari”<sup>6</sup>, Xayrulla Hamidovning turk va rus tillariga qilingan tarjimalar asosida “O‘tkan kunlar romani tarjimalarida maqollarning berilishi” maqolasida<sup>7</sup> va U. P. Lafasovning qator maqolalarida<sup>8</sup>fikrlar bildirilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan **asosiy maqsad**“Choliqushi” va “O‘tkan kunlar” romanlarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarinio‘rgangan holda bu ikki asardagi badiiy mahoratni ko‘rib chiqishdan iborat.

Ishning **vazifasi** esa ikki asardagi badiiy tasvir vositalarini kuzatib, uni tahlil qilish, ilmiy g‘oyani yoritib berish jarayonida ushbu tadqiqotning istiqbolini aniqlashdan iboratdir.

Ishning **obyekti bo‘libbadiiy tasvir va ifoda vositalari hisoblanadi.**

Badiiy tasvir vositalarining xususiyatlari va qiyosiy tahlili BMI ning **predmeti** hisoblanadi.

---

<sup>5</sup>Z.T.Chamiyeva.Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi maktublarning lug‘aviy-ma’noviy va uslubiy xususiyatlari.-Toshkent,2006.

<sup>6</sup>“Til va adabiyot ta’limi” jurnali.11-son.40-43 b.

<sup>7</sup>Veb-sayt:[www.fledu.uz](http://www.fledu.uz).107-113 b.

<sup>8</sup>„XXI asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari” doimiy anjuman materiallari. 2007,140-141 b. „O‘zbek tilshunosligi masalalari” anjuman materiallari. 2011, 152-153 b.

Ishning **metodologik asosini** O‘zbekiston Respublikasining ma’naviyat hamda adabiyotga tegishli qonunlari, O‘zbekiston Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida bayon qilingan mamlakat va xalq taraqqiyoti, adabiyotimizning rivojlanishi, yozuvchi va shoirlarimizning mahoratlarini oshirish borasidagi fikr va mulohazalari, yurtimiz va xorijlik olimlarning o‘rganilayotgan muammoga tegishli ilmiy ishlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar tashkil etadi.

Mazkur ish kirish, ikkita bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# **I BOB. BADIY TASVIR VOSITALARI HAMDA “CHOLIQUSHI” VA “O’TKAN KUNLAR” ROMANLARI**

## **1.1. O‘zbek va turk tillaridagi badiy tasvir vositalari**

Badiiy tilning eng muhim spetsifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotSIONALLIKNI ko‘rsatiladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo‘lmish obrazlilik(tasviriylik) va emotSIONALLIKNI kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so‘z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya’ni, ko‘p hollarda bitta vositaning o‘zi ham tasvir ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo‘llaniluvchi ayrim vositalar (mas, tovush takrorlari) borki, ular asosan ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi, dedik. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan umumodatlangan normadan og‘adi (ya’ni, til unsurlarini odatdagidan o‘zga shakl, ma’no, tartib, munosabat va sh.k.larda qo‘llaydi) va shu "og‘ish"dan ma’lum badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutadi. Bu xil og‘ishlar tilning turli sathlarida — fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan normadan og‘ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to‘laqonli bo‘lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Leksik sathdagi normadan og‘ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko‘rinadi. Ma’lumki, umumxalq tilidagi so‘zlar o‘zlarining nominativ holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya’ni, ijodkor ifoda va tasvirni so‘z ma’nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so‘z xazinasidan "so‘z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin

bo‘ladi. Yozuvchining umumxalq tilida mavjud so‘zlardan umumodatiydan o‘zgacharoq foydalanishi quyidagicha badiiy-estetik maqsadlar bilan yuz beradi:

1. Davr koloritini(ruhini) berish uchun. Lug‘atdagi eskirgan so‘zlar — arxaizm va istorizmlar odatdagи so‘zlashuvda ishlatilmasligi ma’lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Deylik, o‘z asarida o‘n beshinchi asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o‘sha davrga xos realiyalarni tasvirlashi lozim bo‘ladi. Ya’ni, o‘sha davr koloritini o‘sha davrga xos bo‘lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar va h. nomlarisiz to‘la tasvirlab bo‘lmaydi. Ikkinchi tomondan, o‘n beshinchi asr muhitida harakatlanayotgan personaj tili ham shunga mos bo‘lishi, uning nutqida o‘sha davrga xos so‘zlar va so‘zshakllar ishlatilishi obrazning ishonarli va to‘laqonli bo‘lishiga xizmat qiladi.

2. Adabiy tilda kam qo‘llaniluvchi dialektizmlar badiiy asarda joy koloritini berish uchun qo‘l keladi. Aytaylik, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar tarqalgan hududlarda umummilliylar xususiyatlar bilan bir qatorda o‘sha hudud kishilarigagina xos bo‘lgan jihatlar (urf-odatlar, tasavvurlar, aqidalar, narsa-buyumlar va h.k.) ham mavjudki, bular birinchi galda sheva tilida o‘z aksini topadi. Shunday ekan, asarda tasvirlanayotgan hududga xos buyoqlarni berish, unda harakatlanayotgan personaj xarakterini to‘laqonli badiiy talqin etish uchun dialektizmlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

3. Badiiy obraz konkretlilik xususiyatiga ega. Asardagi personaj konkret muhitda harakat qiladi. Muhitga mansublikni ifodalashda varvarizmlar, vulgarizmlar, argo va jargonlarning ahamiyati katta. Muhit koloritini ifodalash bilan birga, ular personaj nutqini individuallashtirish, ruhiyatini ochish va umumiyligini yaratishda ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash. Tilimizda mavjud so‘zlar emotsiyal bo‘yoqdorligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Yozuvchi tasvir predmetiga munosabatini ifodalash uchun mavjud so‘zlardan keragini tanlashi zarur bo‘ladi. Masalan, sinonim so‘zlar qatoridan ijobiy bo‘yoqqa yoki salbiy

bo‘yoqqa ega so‘zning tanlanishi yozuvchining tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifodalab berishi mumkin.

Semantik sathdagi og‘ishlar. Ma'lumki, nutq jarayonida biz so‘zlarni o‘z ma’nosida yoki ko‘chma ma’noda qo‘llashimiz mumkin. So‘zning odatiy ma’nosidan o‘zga ma’noda qo‘llanishi semantik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning umumiyligi nomi trop (ko‘chim) deb yuritiladi. So‘z ma’nosini ko‘chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko‘rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo‘llanilgan ko‘chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo‘yoqdorligi, ta’sirdorlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

a) ko‘chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so‘z ma’nosini ko‘chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko‘nikib ketganmizki, hozirda ularga ko‘chim sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur ko‘chimlar qo‘llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik sathda og‘ishga yo‘l qo‘ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan. Baski, bu xil ko‘chimlar matnda estetik funktsiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo‘lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an’anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko‘chimlar ham ko‘p uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarov qomat", "qoshi kamom", "nargis ko‘z" va hokazo. Bu xil ko‘chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq, ulardan farqli o‘laroq, matnda estetik funktsiya bajaradi: tasviriylikni, ifodaviylikni kuchaytiradi;

v) badiiy-estetik funktsiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko‘chma ma’noda qo‘llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan ko‘chimlar alohida o‘rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko‘chimlari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko‘chimlargina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zlab yo‘l qo‘ygan semantik sathdagi og‘ishi natijasidirki, uning

badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda biz, avvalo, shu xil ko‘chimlarni e’tiborga olishimiz kerak bo‘ladi.

Vogelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko‘rinmagan, biroq san’atkorona o‘tkir nigoh bilan ilg‘angan o‘xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko‘chimlar o‘quvchini hayratga soladi, unga zavq bag‘ishlaydi. Badiiy asarda eng ko‘p qo‘llanuvchi ko‘chim turlaridan biri **metaforadir**. Metafora usulidagi ma’no ko‘chishida narsa-hodisalar orasidagi o‘xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o‘xshatish deb atash mumkin. Yashirin o‘xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o‘xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilgani holda o‘xshayotgan narsa uning ma’nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o‘xshatilayotgan narsalardan aynan o‘xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin davr" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan.

Turk tilida metafora *metafor*, *iğretileme*, turk adabiyotshunosligida esa *istiare* deb nomlanadi. Turk tilshunosligida metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi ma’no hodisalari va atamalari ko‘p hollarda chalkashtiriladi. Masalan, *iğretileme* atamasi metaforaning ham, metonimianing ham, ba’zida sinekdoxaning ham muqobili sifatida ishlatiladi.<sup>9</sup>“**Metafora-** (yun. “*ko ‘chirish*”) o‘xshashli ko‘chimdir. Metafora nemis tilida metaphor, ingliz va fransuz tillarida metaphore, hozirgi turk tilshunosligida esa deyim aktarimi deb ataladi. Undan tashqari, turk tilshunosligida ushbu atamaga nisbatan *metafor*, *iğretileme* yoki *istiare* atamalari ham qo‘llaniladi. İstiare atamasi dastlab usmonli turk tilida qo‘llanilgan. Oralarida uzoq yoki yaqin munosabat bo‘lgan ikki narsa orasida bir o‘xshatish munosabati o‘rnatgan holda ulardan birining nomini unga o‘xshash boshqa narsaning nomi bilan ifodalash hodisasiga metafora deyiladi. *Haydi, aslanım, göster kendini* (Qani, arslonim, ko‘rsat o‘zingni) satridagi *aslan* (arslon) so‘zi

---

<sup>9</sup>Hamidov. X., Rixsiyeva. G., Turk tili. Toshkent, 2013, 41 b.

“jasur, pahlavon yigit” ma’nosini ifodalab kelgan. Bir so’z san’ati sifatida ushbu ko’chimning adabiyotshunoslikdagi muqobili *istiare* (*istiora*) dir<sup>10</sup>.

Umuman narsa va hodisalar orasidagi nisbiy o’xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo’lgan so’zning ikkinchisini ifodalash uchun ishlatalishiga *istiare* (*istiora*) deyiladi.

Yuqoridagi fikrdan ko‘rinib turibdiki, turk tili, shuningdek, adabiyotshunoslida badiiy tasvir vositalari aniq ravishda ajratilib ko‘rsatilmagan. Ko‘pincha ular umumiy holatda *mecaz anlam* nomi bilan yuritiladi.

Ma’no ko‘chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri **metonimiya**dir. Metonimiya (gr.-"o‘zgacha nomlash", "boshqa narsa orqali atash") usulida ma’no ko‘chganida narsa-hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ("stadion hayqirdi", "butun shahar qatnashdi"), vaqt ("og‘ir kun", "omadli yil"); harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita ("achchiq til"); narsa va uning egasi, yaratuvchisi ("Fuzuliyni o‘qimoq"); narsa va u yasalgan modda, xom-ashyo ("barmoqlari to‘la tilla"); ruhiy holat, xususiyat va uning tashqi belgisi("ko‘z yummoq") kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur etakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o‘zining estetik funktsiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo‘lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo‘llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo‘nda va ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Turk tilshunoslida metonimiya *iğretileme* deyiladi. Metonimiya yo‘li bilan ma’no ko‘chishi hodisasiga *mecaz* ham deyiladi. Narsa yoki hodisalarning makon yoki zamon ichida o‘zaro bog‘lanishi asosida ma’no ko‘chishida ular orasida tashqi va ichki o’xshashlik bo‘lmaydi. Oradagi doimiy bog‘liqlikning mavjudligi ma’no ko‘chishiga olib keladi. Masalan, turk tilida *kahve* (*kofe*) “choyxona” bo‘ladi. Yoki *kağıt* deyilganda “*qog‘oz*” bilan birga “*hujjat*” ham nazarda tutiladi. *Mutfaktan başım çıkmıyor* deganda “Uy yumushlaridan qo‘li bo‘samaslik ”

<sup>10</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslilik instituti.Toshkent, 2013,39-40 b.

anglashiladi. Bu jumladagi mutfak asli “oshxona” ma’nosida qo’llangan. *Ben Rumi’yi okudum* deganda J.Rumiyning asarlari tushuniladi.

Metonimiya bir narsani ikkinchi nom bilan atash demakdir. Bu yo’l bilan ma’no ko’chishining asosiy ko’rinishlari quyidagilar:<sup>11</sup>

	<b>Ma’no ko’chishi</b>	<b>Misol</b>
	Bir predmetning nomi shu predmet ichidagi boshqa predmetga ko’chiriladi	Bağdat-shahar,Bağdat-shu shaharda yashovchilar.Bu gece Bağdat uyumadı.
	Bir narsaning nomi shu narsaga asoslangan o’lchov birligi bo’lib keladi	Baş (bosh)-kishi tanasi-ning yuqori qismi.Baş-dona, bir baş soğan
	Belgining nomi shunday belgisi bor narsaga ko’chiriladi	Gök (ko’k rang), gök (ko’k osmon)
	Zamon munosabatini bildiruvchi so’zlar	Ellide- ellik yoshda
	Muallif va uning asari o’rtasidagi bog’liqlik	Nevai’yi bitirdim(Navoiynig asarlarini o’qib tugatdim)
	Millat nomi, shu millatga mansub kishi	Özbek önce çocuğu, Sonra ben,der(O’zbeklar oldin farzandim,so’ngra o’zim deydi)
	Kiyim nomi shu kiyimni kiygan shaxs	Bana şu oturan

<sup>11</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent, 2013, 42 b.

	ma'nosida	kareli ceketi çağır (Menga ana shu o'tirgan katakli pidjakni chaqir)
--	-----------	---

Tropning yana bir turi **sinekdoxa** bo'lib, u mohiyat e'tibori bilan metonimianing bir ko'rinishidir. Sinekdoxaning metonimiya ko'rinishi sifatida qaralishiga sabab shuki, bunda ham aloqadorlik asosida — butun va qism, yakka va umum aloqasi asosida ma'no ko'chishi yuz beradi. Shu bois ham mutaxassislar sinekdoxani metonimianing miqdoriy ko'rinishi deb qaraydilar.

Ma'no ko'chishining yana bir turi "**kinoya**" (ironiya) bo'lib, u teskari o'xshatishga asoslangan ko'chimdir. Masalan, A.Qodiriy Kalvak maxzumning badbashara qiyofasini chizib bergach, boshqa bir o'rinda uni "husni Yusuf" deb ataydiki, bu birikmaning teskari ma'noda qo'llangani bizga ravshan. Kinoya qahramonlar tilida ham keng qo'llanadi. Biroq bu holda u ko'chim sifatida emas, ko'proq konkret hayotiy holatga, sog'lom mantiqqa yoxud so'zlovchining maqsadiga muvofiq kelmaydigan gap sifatida ko'rindi. Kinoya asosidagi bu usul antifrazis deb yuritiladi. Antifrazis tasvir predmetiga yozuvchi munosabatni ifodalashda ayniqsa qo'l keladi.

Turk tilshunosligida qismni anglatadigan so'z orqali qismning ifodalanishiga o'zbek va rus tilshunosligida bo'lgani kabi jiddiy yondashuv kuzatilmaydi. Ya'ni sinekdoxa metonimiya bilan birga olinib *iğretileme* deyiladi va metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishi hodisasiga *mecaz* deyiladi. Masalan, *ahir* deyilganda "*molning oxuri*" tushuniladi. *Ahırmadört ayak görmedi* jumlasida esa *ahırmolxona, dört ayak- sigir* ma'nosida kelgan. *Bu parayialnimin teriyle kazandım* jumlasida *alın teri (peshona teri)- halolmehnat* demakdir.

Turk tilida *Bana bıyığı çağır* jumlasidagi *bıyık* so'zi sinekdoxa hisoblanib, ushbu so'z aslida "*mo'ylab*", lekin jumlada "*mo'ylab qo'ygan kishi*" ni bildirib kelgan.

Kishining nomini uning tashqi ko'rinishidagi belgi bilan aytish sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chish demakdir. Masalan, *beyazsaçlı* (*oqsoch*), *aksakallı* (*oqsoqol*) kabi.”<sup>12</sup>

Ko'chimning yana bir turi **allegoriya** bo'lib, bunda mavhum tushunchalar konkret narsa-hodisalar orqali ifodalanadi. Badiiy adabiyotda allegoriyalar ko'proq an'anaviy tarzda qo'llanib, ular turg'un holatga kelib ulgurgan. Masalan, badiiy asarlarda "tulki" ayyorlik, "bo'ri" vahshiylik, "eshak" farosatsizlik, "jiblajibon" qo'nimsizlik, "buqalamun" tutruqsizlik kabi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi.

Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo'lgan ko'chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo'llanadi. Simvolning allegoriyadan farqi shundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o'z ma'nosida va ham ko'chma ma'noda qo'llanadi.

O'xshatish- badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektni orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Sana'tkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko'rinas tomonlariga jalb qiladi, asarning g'oyasini ochishga yo'naltiradi.

O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomonidan obrazli o'xshashligiga aytildi.

O'xshatish obyekti tasvirlamoqchi bo'lgan predmet, hodisa; o'xshatish obrazi- taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, ikki predmet va hodisaning bir-biriga mos kelishidir.

O'xshatishlarni belgilashda asosan ana shu uch belgining roli katta. Masalan: *Mesela beni lastik top gibi havaya fırlatıp tutar, yahut kalpağının üstüne oturtup ayaklarımdan tutarak sıçratır, firıl firıl çevirirdi.*

---

<sup>12</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent, 2013, 43 b.

**Tarjimasi:** Masalan, meni rezinka to‘pday osmonga irg‘itib ushlab olar yoki qalpog‘iga o‘tqazib oyoqlarimdanushlardi-da, turgan yerida sakrar, gir aylanar edi. Bunda beni-obyekt, lastik top -obraz, firlatmak-belgisidir. Belgi obyekt va obrazlar bilan alohida bir sintaktik aloqani tashkil etadi.<sup>16</sup>

Tashqi tomondan qaraganda, rezinka to‘pbilan odam o‘rtasida hech qanday aloqayo‘qdek tuyiladi. Lekin yozuvchi Ferideni sho’xliginiva uni to‘pdek sakrab otishini asosiy o‘xhashlik belgisi qilib olgan. Belgi asosida ikki predmet bir-biri bilan taqqoslanmoqda. Agar “belgi” bo‘lmasa, Feride bilan lastik topo‘rtasida o‘xhashlik bo‘lmas edi.

O‘xshatishning belgisiga qarab, ularni ikki guruhgaga ajratish mumkin.

1. Grammatik belgili o‘xshatishlar. Bunda obyekt, obraz va belgilar grammatik-ko‘rsatkichi bilan mavjud bo‘ladi. Uch belgidan birortasi ham tushib qolmaydi: *Bunların bitmesinden bir felaket gibi korktuğum halde bir oturuşta hepsini silip süpürdüm.*

### **Tarjimasi:**

*Xurmolarning tugashidan falokatdan qo‘rqqanday qo‘rqqanim holda bir o‘tirishda hammasini pok-pokiza tushirdim.*

Bu misolda Bunların bitmesinden-obyekt, bir felaket gibi -obraz, korktuğum halde-belgidir.

2. Logik o‘xshatishlar. Bunda grammatik belgi ko‘rsatkich bo‘lmaydi. Lekin mazmunan “obyekt” va “obraz”lar bir-biriga mos keladi, ya’ni “obyekt” va “obraz”larning shaklan va mazmunan moslik belgisi obrazning o‘zida bo‘ladi. Masalan: *Murabiyalarimiz chindan ham malak kabi xotinlar edi* Bu misolda xotinlar-obyekt, malak kabi -obraz, belgi grammatik nol formada. Lekin mazmundan o‘xshatishni anglash mumkin.

O‘xshatish strukturasiga ko‘ra oddiy va tizmali bo‘lishi mumkin.

Oddiy o‘xshatish terminida bir “obyekt” va “obrazli” o‘xshatishlar ko‘zda tutiladi. Masalan: ...*sarg‘imtir kulrang sahro yuzini va undagi past-*

---

<sup>16</sup>Кўнгуроев Р. Ўзбектилиниң тасвирий виситалари. – Тошкент: Фан, 1997.

*baland do ‘ngliklar ustini tutib ketgan odamlar, onda-sonda o ‘rgimchakday o ‘rmalab yurgan aravalalar ko ‘rindi.* Bu misolda arava-obyekt, o ‘rgimchakday-obraz, o ‘rmalash-belgi.

Tizmali o ‘xshatish deb, biz ikki va undan ortiq “obrazli” o ‘xshatishning mos kelishini aytamiz.

O ‘xshatishlarni tarkibiga ko ‘ra yana to ‘liq va to ‘liqsiz o ‘xshatishlarga ajratish mumkin.

To ‘liq o ‘xshatishlarda qancha “ob’ekt” bo ‘lsa, shuncha “obraz” bo ‘ladi. Ya’ni “obyekt” bilan ‘obraz’ teng bo ‘ladi.

To ‘liqsiz o ‘xshatishlarda esa bir “obyekt”ga “obraz” yoki undan ortiq “obraz”larning taqqoslanishiga, yoki bir “obraz”, ikki “obyekt” o ‘rtasida bo ‘lib, har ikkala obyektga tegishli bo ‘ladi.

O ‘xshatishni chegaralashda asosiy uch ko ‘rsatkich, ular grammatik tomondan tasnif etish, o ‘xshatishning badiiy asarlardagi roli va yozuvchining uslubiga bog ‘liq holda o ‘rganish masalasi muhimdir.

O ‘xshatish strukturasi (material tarkibi) haqida gapirganda yana quyidagi struktural tiplar haqida ham gapirish mumkin.

O ‘xshatish oborotlari. Bu o ‘xshatishning ko ‘p tarqalgan formasidan biri hisoblanadi. Bu forma ba’zan o ‘xshatish ergash gaplarga o ‘xhab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: “o ‘xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo ‘lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo ‘limgani uchun ergash gap bo ‘la olmaydilar.”<sup>17</sup>

Masalan: Hasılı o gece ortalık kararincaya kadar, kuş gibi ağaç dalında tünedim.

O ‘xshatish ergash gaplar. Bunday gaplar nisbatan tugallangan sostavida esa egasi bilan birga kesimi ham bo ‘ladi. O ‘xshatish ergash gaplarda ifodalangan va gapdagi aytilgan fikrni qiyoslash orqali to ‘ldiradi va unga go ‘yo, xuddi yordamchilari, -ki bog ‘lovchisi hamda o ‘tgan zamon sifatdoshi – day, -dek formalari orqali bosh gapga birikadi.

---

<sup>17</sup> Абдурахмонов Ф. Кўшмагапсинтаксисиасослари.– Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1958, 2046.

-day (-dek), -simon, -ona, -namo, -omuz, -ga, -chasiga, -larcha affikslari yordamida ifodalangan forma: harbiychasiga, tog‘dek, guldek, gulday, shoirona, odamsimon, kinoyaomuz kabilar.

Izohlovchi izohlanmish formalaridagi o‘xshatishlar: sog‘liging boyliging, oshnang-belbog‘ing. Til yurakning kaliti.

Inkor ma’nosini anglatuvchi emas to‘liqsiz fe’li yordamida tuzilgan shakl: *Shahar emas, jahannam bu.*

O‘xshatishning kengaytirilgan formasi. Bunda bir gapning ichida bir necha o‘xshatish bo‘ladi. Gapning birinchi qismida ikki predmet chog‘ishtirilsa, ikkinchi qismida yana ikki predmet bir-birlari bilan chog‘ishtiriladi. So‘ngra ular yana bir-birlari bilan chog‘ishtiriladi.

Idioma va frazeologik birikmalar vositasida ifodalangan forma: *ko‘z qorachig‘idek saqlamoq, suvga tushgan mushukdek kabi.*

Hozirgi o‘zbek tilida o‘xshatish leksik va grammatik vositalar yordamida hosil bo‘ladi.

1. Leksik vositalar. O‘xshatish hosil bo‘lishida anchagina mustaqil va yordamchi so‘zlar ishlatiladi:

a)kabi, singari, qadar ko‘makchilari vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bog‘liq bo‘lgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu ko‘makchi har doim o‘xhatiladigan predmetni ko‘rsatuvchi so‘zlardan keyin keladi.

Masalan: *başındaki beyaz başlığın uçları garip bir kuşun kanatlan gibi saçlarımı sürünenerek yakından yüzüme baktı ve yanaklarımı okşadı.*

**Tarjimasi:** Boshidagi oq ro‘molining uchlarini g‘alati bir qushning qanotlari *singari* sochlarimga tegizib turib, yaqindan yuzimga tikildi,betlarimni siladi.

b)yanglig‘, bamisoli, misoli, misli ravishlari vositasida. Bunda boshqa bir qonuniyatni kuzatamiz.

Yanglig‘ so‘zi doimo o‘xshatish obrazidan so‘ng qo‘llaniladi, postpozitiv holatda bo‘ladi.

v) bog‘lovchilardan go‘yo ham predmetlar, voqea-hodisalarni bir-birlariga qiyos qilishda tez-tez ishlatiladi. Go‘yo yordamchisi ko‘proq o‘xshatish ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Masalan: *Sanki bir an akrepli sinek oyununu icat eden ve hocanın bayılmasına sebep olan yaramazın ben değil, o olduğuna inanacak gibi oldum.*

**Tarjimasi:** *go‘yo chayon surati yopishtirilgan so‘na o‘yinini o‘ylab chiqargan, o‘qituvchini hushidan ketkazgan yaramas qiz men emas-u, u ekaniga ishonar darajada hayratda qoldim.*

2. O‘xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar. O‘zbek tilida bir nechta affiks borki, ular biror bir predmet belgi yoki holatni boshqalarigao‘xshatish, qiyos qilish uchun xizmat qiladi. Ular quydagilar: -day (-dek), -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga, -dan, -li.

Bu affikslar, odatda o‘xshatish obrazini ko‘rsatuvchi so‘zga qo‘shiladi va biror predmet, belgi yoki holatni shu so‘z orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi.

Ularning ba’zilari grammatik jihatdan sifat (-simon, -day, -dek, -li) yasovchi affikslar hisoblansa ikkinchi bir xillari ravish (-lar –cha, -omuz, -cha, -chasiga) yasash uchun xizmat qiladi. –ona affiksi belgi bilan bog‘liq bo‘lgano‘xshatishlar hosil qiladi:

-dek: Bu affiks –day ning fonetik variantidir. -dek affiksini olgan so‘zda, uning o‘rniga –day affiksini almashtirish bilan ma’nosida hech qanday o‘zgarish yuz bermaydi.

O‘xshatish –borliq haqidagi bizning bilimlarimiz har doim nisbiy xarakterga egadir. Tashqi olamdagи ayrim narsalar haqida biz aniq tushunchaga yoki tasavvurga egamiz. Masalan, olma, quyosh, olov, daryoning oqishi jarayoni, tiniq suvning rangi, toza osmonning rangi kabi yoki qushning uchishi, osmondagi yashinning xarakteri, shamolning harakati kabilari.

O‘zbek tilidagi yeryong‘oq, yer tut, anjir, shaftoli kabi predmet nomlari shunday qiyoslash natijasi emasmikan? Bu masalaning bir tomoni, masalaning biz uchun zarur bo‘lgan tomoni boshqa: yaqin-yaqinlargacha o‘zbeklar banan,

apelsin, ananas kabi predmetlarning na ma'zasini, na hajmini bilar edilar. (Hozir ham qishloqlarda bu narsalar haqida tasavvurga ega bo'lman kishilar uchraydi). Agar biz qulupnayning ma'zasi haqida so'zlamoqchi bo'lsak, u tanish bo'lman kishiga tutning mazasini chog'ishtirib izohlashga majbur bo'lamiz. Yoki bo'lmasa, sizga tanish bo'lman qizning qoshini ta'riflash uchun qaldirg'och uchib borayotganidagi qanotining chiroyli ko'rinishini ko'z oldimizga keltiramiz, agar uning qomatini izohlamoqchi bo'lsak, sarv daraxtining chiroyli bir ko'rinishi tasvirlaymiz.

Bir parcha patir, olamga tatir topishmog'ida oy patirga o'xshatilayapti.

Bu o'rinda shu darajada noziklik, aniqlik borki, uni inson sezgisining, inson aql- zakovatining kuchini yaqqol ko'rsatuvchi dalillarning biri desa bo'ladi. Haqiqatdan ham oy nega patirga o'xshatiladi? Nega quyoshni patirga o'xshatish mumkin emas? Sabab hammaga aniq bo'lsa kerak. Chunki oyda ham, patirda ham, dog' bor, bu esa ularni bir-biriga o'xshatishga asos bo'lgan, quyoshda esa dog' yo'q.

Maqollarda, eng avvalo, jumlalar aniqligiga, ortiqcha so'zlarga yo'l qo'ymaslikka e'tibor beriladi. Bu esa xalq maqollaridagi o'xshatish oborotlarining ham nima uchun juda qisqa ekanligini izohlovchi asoslardir:

Ona yurting-oltin beshik. Yer-suv bitmas kon. Yer-xamir, o'g'it-xamirturushdir. Yer-xazina,suv-oltin. Yosh qo'l-arslon parchasi.Quruq ayoz-tilsiz yov. Ayriliq-o'limdan qattiq. Borliqning tirikligi-odam bilan. Ilm-aql chirog'i. Ilm olish-igna bilan quduq qazishga teng. Aqli ish-qanotli qush. Dono-durdan a'lo. Til-aql tarozisi. Odam temirdan qattiq, guldan nozik.

Mumtoz adabiyotda tashbeh deb nomlanuvchi bu qo'llanish tashbehi sareh (ochiq o'xshatish), tashbehi mashrut (shartli o'xshatish), tashbehi tafzil (chekinish yo'li bilan o'xshatish), tashbehi aks (teskari o'xshatish), tashbehi muzmar (yashiringan o'xshatish), tashbehi tavsiya (barobar o'xshatish), tashbehi musalsal (ketma-ket oxshatish) tashbehi kinoyat (kinoya yo'li bilan

o‘xshatish), tashbehi mu’kad (ta’kid yo‘li bilan o‘xshatish) kabi bir necha xil ko‘rinishlari mavjud.<sup>18</sup>

O‘xshatish, yuqoridaaytganimizdek,  
judaqadimzamondanxalqog‘zakijodiyotida,  
mumtozadabiyotdaishlatilibkelingan. Shuning uchunki, poetikaga  
bag‘ishlangan eng birinchi asarlarda ham tashbeh, uning tahlili masalasiga  
alohida o‘rin beriladi.

O‘xshatish ikki narsa yoki voqeа-hodisalar o‘rtasidagi o‘xhashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘larоq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdir.

O‘xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan bo‘lish bilan birga, eng sodda va ko‘p ishlatiladigan, tez-tez qo‘llaniladigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

O‘xshatish o‘zbek adabiyotshunosligida ham (I. Sultonovning “Adabiyot nazariyasi” asari va yo‘l-yo‘lakay bayon etilgan fikrlar hisobga olinmaganda), o‘zbek tilshunosligida ham so‘ngi yillargacha maxsus kuzatish obyekti bo‘lgan emas. Faqat keyingi yillarda matbuotda M. Mukarramov<sup>2</sup>, Yo.Is’hoqovlarning ayrim maqolalari maydonga keldi.

Ammo bir shoir yoki yozuvchi tilidan hatto biror alohida olingan asar tilida ishlatilgan o‘xshatishlar, undagi muallif individual uslubi xususiyati, shu asar tilida o‘xshatishlarni ishlatishdagi novotorligi uning boshqa yozuvchi yoki boshqa asarlarda ijodning dastlabki va keyingi davrdagi o‘xshatishlardan foydalanishdagi taraqqiyot masalalari, ma’lum adabiy oqimlarga mansub bo‘lgan shoir yoki yozuvchining o‘xshatishdan foydalanishdagi uslubi kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ham o‘z kuzatuvchisini kutmoqda.

O‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o‘rinda ma’lum predmet bir predmetga o‘xhatilsa, xuddi shu predmet biror predmetga o‘xhatilsa, xuddi shu predmet boshqa o‘rinda ikkinchi narsaga o‘xhatilishi

---

<sup>18</sup> Исхоков Ё. Ташбех.Ўзбек тили ва адабиёти. 1970, 4-сон, 81-84 б.

mumkin. Prof. R. Qo‘ng‘urov o‘xshatish haqida o‘zining “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o‘xshatishlar borki, ular ham emotSIONallik, ham baholash qimmatini yo‘qotgandir. Bu tipdagi o‘xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup> Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент:Фан, 1977, 42 б.

## **1.2. “Choliqushi” va “O’tkan kunlar” romanlari, ularda badiiy tasvir vositalari**

“Abdula Qodiriy buyuk san’atkor, so‘z ustasi, xalq qahramoni (dushmani emas!)! Qancha tazyiqlar-u malomatlarga qaramay u o‘z so‘zini ayta olgan ulug’ ijodkor. Uning nomini, asarlarini yo‘q qilmoqchi bo‘ldilar. Haqiqat baribir yuzaga chiqdi. Julqunboyning asarlari, uning nomi qalblarimizda abadiy muhrlandi. U yozgan asarlar uyimizning va qalbimizning to‘ridan joy oldi...”<sup>13</sup>

“O’tkan kunlar” romani qaysi yili yozila boshlagani haqida na muallifdan, na boshqalardan biron ma’lumot yetib kelmagan. Romanning ayrim boblari 1923-1924- yillarda matbuotda bosilib turgan. “O’tkan kunlar” ni yaratish fikri muallifda garchi ko‘pdan tug‘ilgan bo‘lsa ham yozishga 1918-1920-yillardan, ya’ni yigirma to‘rt-yigirma besh yoshlardan kirishgani taxmin qilinadi.

Qodiriy romanni yozishga hozirlik ko‘rganda faqat og‘zaki eshitgan , kitoblardan o‘qigan manbalar bilan cheklanib qolmaydi, albatta. U kishi asar voqelagini –hayotiyligini oshirish , to‘g’ri tasavvur berish maqsadida ma’lumot to‘plash uchun Farg‘ona vodiysiga bir necha bor safar ham qiladi.

“Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo‘lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o‘rganib chiqaman. Biror joy to‘g’risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni necha martaba ko‘rganim esimda, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman ”,-deb yozgan edi Abdulla Qodiriy 1935-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosilgan “Yozuvchi o‘z ishi to‘g’risida” nomli maqolasida. Yozuvchi asarni ishonchli tasvirlashga qanchalik e’tibor bergani haqida ushbu maqolasida shunday misollarni keltiradi: “ “O’tkan kunlar” ni yozish chog‘ida Marg‘ilonga borganimda , bir ko‘chadan o‘ta turib, namozshom mahalida, men buni esda tutib qolishga tirishdim. “O’tkan kunlar” ning bir joyiga shu kichkina detalni kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham odam ishonarli bo‘lib chiqqani esimda...”<sup>14</sup> Asarning nima uchun shuhrat qozonganligini ushbu fikrlar tasdiqlaydi.

---

<sup>13</sup>Websayt.n.ziyouz.com

<sup>14</sup>HabibullaQodiriy.”Otamhaqida”.Toshkent, 2004.

Asar faqat o'zbek kitobxonlari mehrini qozonibgina qolmay, jahon adabiyot ixlosmandlari e'tiborini ham o'ziga jalb eta olgan. Buning natijasida esa turli yillarda har xil millat vakillari bo'lgan tarjimonlar tomonidan dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan. Tarjimalarning ba'zilari muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsa, aksariyat qismida kamchiliklar kuzatiladi. Bu esa tarjimonning mohirligiga, ikki tilni qay darajada mukammal egallaganiga bog'liq hodisadir.

"O'tkan kunlar" rus tiliga bugunga qadar ikki marta rus tiliga o'girilgan. Birinchisi, XX asrning ikkinchi yarmida, L.Bat' va V.Smirnova tomonidan tarjima qilingan. Asar 1984-yilda G'afur G'ulom nashriyotida kitob holida chop etilgan bo'lib, 336 betdan iborat. Romanni tarjima qilishda ikki tarjimon ishtirok etgan va asarning birinchi qismi L.Bat, ikkinchi qismi V.Smirnova tomonidan; uchinchi qismining 1-7-boblari V.Smirnova, 8-17-boblari esa L.Bat tomonidan rus tiliga o'girilgan. Xulosa o'rnidagi "Alqissa..." (Epilog) qismini esa L.Bat tarjima qilgan.

Ikkinci tarjima esa, Muhammadnadir Safarov qalamiga mansub bo'lib, asar 2009-yilda rus tiliga o'girilgan. "Sharq" nashriyot-matbaa uyida chop etilgan kitob 432 sahifani o'z ichiga oladi. "O'tkan kunlar" badiiy tarjimasining ushbu variantida tarjimon o'zbegona muhitni rus tilida yetarli darajada ta'minlay olgan va kerakli so'zlar o'z o'rnila qo'llanganligi bilan ham alohida ahamiyatga loyiq.

Katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan turk adabiyotining yuksalishi birday kechmadi. Ammo mazkur adabiyotning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmidagi davrini oltin davr deb atash mumkin. Bu davr adabiyotida katta sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Turk adabiyotida proza (hikoya,roman), dramaturgiya janrlarida ko'plab ajoyib asarlar yaratildi, turk poeziyasida esa bir necha adabiy maktablar yuzaga keldi. Jahon adabiyotining ta'siri hamda Turkiyadagi ijtimoiy taraqqiyot natijasida maydonga kelgan bu davr adabiyotidagi so'z ustalari o'z asarlarida birinchi navbatda oddiy xalq hayotini, mamlakat oldida turgan muhim muammolarni aks ettira boshladilar. Ana shunday yozuvchilarning yetakchi vakillaridan biri, ilg'or fikrli turk ijodkorlarining ma'naviy izdoshi Rashod Nuri Guntekindir.

Yozuvchining ko‘pgina asarlari qahramonlari yoshlardir. U zamon ziddiyatlari haqida fikr yuritadimi yoki Turkiya qishloqlaridagi ahvol, dehqonlar turmushi haqida gapiradimi, bunga ko‘proqo‘sha davr yosolarining ko‘zi bilan qarashga, Turkiyaning kelajagi bo‘lgan yosh ziyolilar aqli bilan yondoshishga intiladi. Rashod Nuriga olamshumul shuhrat keltirgan “Choliqushi” romanida bu narsa yaqqol ko‘ringan. Romanga muallif ijodining boshlanish davrida yozilgan “Istanbullik qiz” pyesasi asos bo‘lgan. Garchi pyesa unchalik muvaffaqiyat qozonmagan bo‘lsa-da, ammo romandagi Farida millionlarning sevimli qahramoniga aylandi.

Umuman olganda, mana shu ikki mashhur asar o‘zining badiiy mahorati bilan bugungacha durdona asarlar qatoridan joy olib kelmoqda. Bu ikki asarning badiiy tilidagi badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo‘llanilishi asar saviyasini yanada oshirishga xizmat qilgan. “Choliqushi” va “O‘tkan kunlar” romanlario‘zbek va turk romanchiligining nodir asarlari hisoblanib, ulardagi badiiy til xususiyati eskirmas asar bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ikki asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini kuzatar ekanmiz, romanlarning ta’sir kuchini hamda saviyasini oshirishda katta rol o‘ynaganiga guvoh bo‘lamiz. Asarlarda metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, o‘xshatish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalilanigan. “O‘tkan kunlar” romanini kuzatar ekanmiz, unda bir qator badiiy tasvir vositalari qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, mana bu parchada badiiy tasvir vositalarining bir turi qo‘llanilgan. “*Saroy tinch uyquda*, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham’ yoqdi va bekning to‘sagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi.” Bu parchadagi *Saroy tinch uyquda* gapida o‘z-o‘zidan metonimiya qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Choliqushi” romanida esa asosan o‘xshatish san’ati ko‘proq qo‘llanilgan. “Dastlabki kelgan kunlarimda bu siniq haykal oftobdan, yog‘ingarchilikdan qoraygan rangi bilan menga mayib, sahroyi boladay xarob ko‘ringan edi.” Bunda sahroyi boladay so‘zi o‘xshatishga misol bo‘la oladi. O‘xshatish- badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lib, obyektni obrazli, ta’sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi.

San'atkor qahramonlarni tasvirlashda ularning o‘ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o‘xshatishlardan foydalanadi. Ularni konkretlashtiradi, bo‘rttiradi. Kitobxonning diqqatini obrazning ko‘rinmas tomonlariga jalb qiladi, asarning g‘oyasini ochishga yo‘naltiradi.

Bundan tashqari metonimiya qo‘llangan parchalarga ham duch kelamiz. Masalan: “Buvim saharga yaqin uyg‘onganda yonida yo‘qligimni ko‘rib, shaytonlab qolayozibdi... Bir necha minut ichida butun chorbog‘ oyoqqa turibdi... Chiroq, shamlar ko‘tarishib bog‘chani, dengiz bo‘ylarini axtarishibdi.” Bu parchada chorbog‘ so‘zi metonimiya sifatida kelgan. Chorbog‘da yashovchi kishilar o‘rniga chorbog‘ning o‘zi qo‘llanilgan.

Umuman olganda, bu ikki asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari ko‘plab uchraydi. Bu esa har ikkala yozuvchining so‘z boyligi keng ekanligini ko‘rsatadi.

**II BOB. “CHOLIQUSHI” VA “O‘TGAN KUNLAR”**  
**ROMANLARIDAGI BADIY TASVIR VOSITALARINING O‘ZIGA**  
**XOSLIGI**

**2.1. “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariga izoh**

“O‘tkan kunlar” romanini kuzatar ekanmiz, unda bir qator badiiy tasvir vositalari qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. Badiiy tasvir vositalarini qo‘llashda yozuvchi o‘zining uslubi, o‘sha davrning holati hamda tiliga tayangan. Bu esa asarning jozibadorligini oshirgan. “O‘tkan kunlar” romaniniko‘rib chiqqan holda badiiy tasvir vositalarini birma bir tahlil qilamiz.

Bizga ma’lumki, metaforaning turli ko‘rinishlari mavjud. Metaforalar ba’zan frazeologik birliklarda ham uchraydi. Masalan :

“Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan.” Ushbu parchada *qamchindan qon tomgan kishi* – jahldor, zolim kishi ma’nosida kelmoqda. Bu yerda metaforik ma’no ko‘chishi sodir bo‘lgan.

Yana bir jumlada metafora qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz: “Huvalboriy... ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, *hayotimizning mevasi* o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘srlaringiz munda Haq taolonning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aldavom rabbulolamidan rajo va tamanno etmakdamiz.” Yuqoridagi jumlada qo‘llanilgan *hayotimizning mevasi* moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmasi *farzandma’nosida kelgan*. Daraxtning mevasi bo‘ladi, hayotning emas. O’simlik nomi boshqa narsaga ko‘chmoqda.

“Har holda Toshkand ustiga yana *qonliq bulutlar* chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar- bu bir xudog‘ag‘ina ma’lumdir”

Tabiat hodisasi bilan bog‘liq ma’no ko‘chishi ushbu parchada keltirib o‘tilgan. *Qonliqbulutlar-xavf- xatarlar* ma’nosida kelmoqda. Bulut so‘zi, ayniqsa, qora bulut ko‘pincha adabiyotda qayg‘u, g‘am-tashvish, azob-uqubatni tasvirlab

keladi. Yozuvchi bu yerda bulut so‘ziga qonli sifatini qo‘sghan holda, xavf-xatarni kuchaytirib tasvirlagan.

“Yosh shohimizning baxt va tole’lari ruhsiz tanlarimizga qayta boshdan ruh, *ma'yus ko'ngillarimizga* qaytib chiqmaslik umid bag’ishladi”

Inson ko’ngli mavhum tushunchadir, uni ko’rib bo’lmaydi. Ma’yus yuz bo’ladi, lekin ma’yus ko’ngil ma’no ko’chgan birikmadir. Ma’yus so’zi g’amga botgan degan ma’noda kelmoqda.

Chunki shu ikki yil ichida kechirgan *qora kunlarni* eska olish manim uchun o’sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim

Rang bilidruvchi *qora* so’zi salbiy ma’noda keladi. Kunning qorasi bo’lmaydi, albatta! *G’am-anduhli* ma’nolarini tashimoqda.

Asarda metonimiya ham ko‘p uchraydi. Masalan:

“Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilanboshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytganlar, *ko'b hujralar* kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qaragandasaroy *jonliq*: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kkako‘targudek” Ushbu parchada metonimiya *ko'b hujralarvasaroy jonliq* so‘zlarida qo‘llanilgan bo‘lib, narsa yoki hodisalarning makon yoki zamon ichida o‘zaro bog’lanishi asosida ma’no ko’chishida ular orasida tashqi va ichki o’xshashlik bo’lмаган holda ma’no ko’chgan. Oradagi doimiy bog’liqlikning mavjudligi ma’no ko’chishiga olib kelgan.

Yana bir parchada metonimiyanı kuzatamiz:

“Ziyofat samimiyat bilan chaqirilg‘anliqdan dasturxon qadrlik mehmonga maxsus turlangan edi. Ziyo shohichi bilan o‘g‘li Rahmatning har zamon mehmonlarni *dasturxonga* qistashlari boshqalarning ishtahalarini ochishqa sabab bo‘lsa ham, ammo bizning Otabekka sira ham asar qilmas, xayollanib o‘ltirar edi”

Bu yerda dasturxon so‘zida metonimiya hodisasi sodir bo‘lgan. Dasturxon deb, dasturxonagi taomlar nazarda tutilgan.

Quyida maktub matnlarida metonimiya yo‘li bilan ma‘no ko‘chgan so‘zlarning izohiga to‘xtalamiz.

“Siz qora chopon og‘aynilarning *qipchoq* qo‘lida shahid bo‘lg‘an qarindoshlaringizning ruhlarini shodlandirmoq uchun o‘ldirdim!”

Bu yerda elatning nomiga metonimiya hodisasi sodir bo‘lgan. Millat nomi shu millatga mansub kishilarga ko‘chgan.

*Toshkand* tinchlangandan keyin (agar salomat bo‘lsam) o‘zim xabar yuborurman

Bir joyning nomi shu joy ichidagi boshqa predmetga ko‘chirilmoqda, ya’ni Toshkand deb u yerdagи voqelik nazarda tutilmoqda.

Turk tilshunosligida qismni anglatadigan so‘z orqali qismning ifodalanishiga o‘zbek va rus tilshunosligida bo‘lgani kabi jiddiy yondashuv kuzatilmaydi. Ya’ni sinekdoxa metonimiya bilan birga olinib *iğretileme* deyiladi va metonimiya yo‘li bilan ma‘no ko‘chishi hodisasiga *mecaz* deyiladi. Masalan, *ahir* deyilganda “*molning oxuri*” tushuniladi. *Ahırimdört ayak görmedi* jumlasida esa *ahir-molxona, dört ayak- sigir* ma‘nosida kelgan. *Bu parayialnimin teriyle kazandım* jumlasida *alin teri* (*peshona teri*)- *halolmehnat* demakdir.

Turk tilida *Bana bıyığı çağır* jumlasidagi *bıyık* so‘zi sinekdoxa hisoblanib, ushbu so‘z aslida “*mo‘ylab*”, lekin jumlada “*mo‘ylab qo‘ygan kishi*” ni bildirib kelgan.

Kishining nomini uning tashqi ko‘rinishidagi belgi bilan aytish sinekdoxa yo‘li bilan ma‘no ko‘chish demakdir. Masalan, *beyazsaçlı* (*oqsoch*),*aksakallı* (*oqsoqol*) kabi.”<sup>15</sup>

“O‘tkan kunlar” asarini kuzatib, unda sinekdoxadan foydalanganligiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Arzimagan sabablar bilan talaf bo‘lgan *jonlarni* hamisha ko‘z oldingda tut!

---

<sup>15</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent, 2013, 43 b.

*Jon* so'zi sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan so'z hisoblanadi, ya'ni *jonlar* deganda *insonlar* nazarda tutilmoqda. Qism orqali butun ifodalangan.

Ammo siz hurmatlularga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an *tuyoqimiz* va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir

Jumlada qo'llanilgan *tuyoq* so'zi sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan so'zdir. *Tuyoq* so'zi farzand ma'nosida kelgan, ya'ni qism orqali butun ifodalanmoqda.

Ma'lumingiz Toshkanddan uylanganimdan so'ng *yolg'izboshimg'a* ham Toshkanddan, ham Marg'ilondan ikki xotin ushlab turish og'irliq qila boshladi

*Yolg'iz boshim* (*tek başım*) birikmasi sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chgan birikma hisoblanadi, ya'ni qism orqali butunni ifodalab kelmoqda. İnson tana azosining bir qismi bo'lgan *bosh* orqali butun bir shaxs nazarda tutilmoqda.

## 2.2. “Choliqushi” romanida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariga sharx

Turk tilshunosligida nutqda so‘zning asl ma’nosidan tashqari qo‘llanib, kasb etgan ma’no yan anlam (yon ma’no, ya’ni ko‘chma ma’no) deyiladi. Ushbu atamaning fransuzcha va inglizcha muqobili *connotetion*, Usmonli turk tilidagi muqobili *tali mana* yoki *ma’na-ni talidir*. Masalan, *baş* so‘zining asl ma’nosidan tashqari “*bir jamoani boshqaruvchi kishi*”, “*bir narsaning boshlang‘ichi*” (aybaşı, yılbaşı, satır başı) va boshqa bir necha “yon” (ko‘chma) ma’nolari ham mavjud.

So‘zlarning tag ma’nosi ham bo‘ladi. *Tag ma’no* deganda hamma uchun odatiy jumlalarning biror o‘rnida kimnidir kamsitish yoki kesatish ma’nolarida qo‘llanishi tushuniladi.<sup>16</sup>

Turk tilshunosligida biz ko‘rib chiqayotgan metafora, metonimiya, sinekdoxa ko‘pincha alohida turkumlarga ajratilmasdan o‘rganiladi va ularga mecaz anlam deb nom berilgan.

Turk adabiyotidagi durdona asarlardan hisoblangan “Choliqushi” romanini ko‘rib chiqar ekanmiz, undagi badiiy tasvir vositalarini tahlil qilamiz. Bu orqali yozuvchining uslubiga xos bo‘lgan badiiy xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin. “Choliqushi” romanida bir qator badiiy tasvir vositalariga duch kelamiz. Masalan:

“Garibi şu ki, Sor Aleksi, siyah elbiselerin içinde *filiz boyu*, membeyaz kolereti ile alnına kaldırılmış bir saraylı yaşağına benzeyen başlığı arasında sivilceli kansız yüzü, narçiçeği kırmızılığındaki dudaklarıyla şimdi karşısında belirse ve bana tekrar o suali sorsa, galiba aynı cevaptan başkasını bulamayacağım; yine balık gibi göl içinde doğduğumu söylemeye başlayacağım.”

### **Tarjiması:**

“Qizig‘i shuki, Aleksi opa qora kiyimi ichida *kosov bo‘yi*, ohorli oppoq yoqasi,saroy xonimining peshonaga tortilgan chorshafiga o‘xshab bosh kiyimi tagidan ko‘rinibturgan sepkilli qonsiz yuzi va anorgul singari qip-qizil lablari bilan hozir ro‘paramda paydobo‘lib, yana o‘sha savolni bersa, hozir ham o‘shandan

<sup>16</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent, 2013,38-39 b.

boshqa javob topolmasam kerak,yana baliqday ko‘lda tug‘ilganimni aytan boshlayman.”<sup>17</sup>

Ushbu parchada *filiz boyu* so‘zida metafora hodisasi sodir bo‘lgan. Ya’ni novda bo‘yi deb to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak, bu yerda badiiy tasvir vositasi qo‘llanilgan. Lekin tarjimada metafora hodisasi yuz bermay, balki o‘xshatishga aylangan.

“Choliqushi”da eng ko‘p qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalaridan bu metonimiya va o‘xshatishdir. Metonimiya hodisasi ko‘p marta qo‘llanilgan. Masalan:

“Büyükannem, sabaha karşı uyanıp da beni yatağında göremeyince çıldıracak gibi olmuş... Birkaç dakika içinde bütün *yalı* ayağa kalkmış...”

“Buvim saharga yaqin uyg‘onganda yonida yo‘qligimni ko‘rib, shaytonlab qolayozibdi... Bir necha minut ichida butun *chorbog‘* oyoqqa turibdi... Chiroq, shamlar ko‘tarishib bog‘chani, dengiz bo‘ylarini axtarishibdi.” Bu parchada *chorbog‘* so‘zi metonimiya sifatida kelgan. Chorbog‘da yashovchi kishilar o‘rniga *chorbog‘ning* o‘zi qo‘llanilgan.

“- Nasıl olacak? Kâmrana varırsın... O, senin tuvaletlerinle uğraşır, söküklerini diker... Sen de *sokak işlerine* bakarsın...”

### **Tarjimasi:**

“Qanday qilib? Komronga tegasan qo‘ysan-da... U sening bezaklaring g‘amini yeydi,yirtiqlaringni tikadi. Sen ham *ko ‘cha ishlariqa* qaraysan.”

Bu yerda *ko ‘cha ishlari* bilan so‘zi bilan metonimiya hodisasi yuz bergen.

“Yaz tatili sonlarında *mektebimiz*, bir zaman için için kaynar, bu taşkınlık ancak birinci üç ay imtihanına doğru yatişirdi.”

### **Tarjimasi:**

“Yozgi ta’til oxirida *maktabimiz* birmuncha vaqt qaynab toshar, bu toshqinlik faqat birinchi chorak imtihonlarigacha davom etardi.”

Bu yerda joy nomiga nisbatan metonimiya hodisasi yuz bergen. Maktabning qaynab-toshishi so‘z birikmasi maktabdagagi gavjumlikni ifodalab kelmoqda.

---

<sup>17</sup>M. Ismoiliy tarjiması

Metonimiya hodisasining yana bir ko‘rinishi borki, unda predmetning biror nom bilan bog‘liqligi mavjud bo‘ladi. “Choliqushi” romanidagi ushbu parchada ana shu hodisa yuz bergen:

“Bu masum yalvarma jesti mektepte sörler ve dindar talebelerin **Meryem** ve **Isa** karşısında dua ederken aldıkları bir jestti. Tesiri herhalde çok zaman tecrübe edilmişti.”

### **Tarjimasi:**

“Bu gunohkorlarcha yolvorish usuli mакtabda murabbiyalar,dindor o‘quvchilar *Bibi Maryam* bilan Iso oldida duo o‘qiyotgan mahallarida qo‘llanadigan usul edi. Harholda, buning ta’siri uzoq vaqtlardan beri sinab kelinardi.”

Bu yerda *Bibi Maryam bilan Iso* nomi ishlatilganda, shaxs emas, balki diniy sanam nazarda tutilgan. Xristianlikda aynan mana shu ikki shaxsning suratiga ibodat qilinadi. Asarda ana shu holat nazarda tutilgan.

“Neriman’ın çok sevdigini söyledikleri kocası bir sene evvel ölmüştü. Bunun için daima *siyah* giyerdi. Fakat bende öyle bir his vardı ki, *siyah* bu kadının sarışın çehresine çok iyi gitmese; matem devam etmeyecek, elbiseler takımıyla çöplüğe atılacaktı.”

### **Tarjimasi:**

“Narimonning eri bundan bir yil avval o‘lgan. Narimon erini juda ham yaxshi ko‘rardi, deyishadi.Shuning uchun u hamisha qora kiyib yurar ekan. Lekin menga shunday tuyuldiki, buxotinning sarg‘imtir chehrasiga juda ham yarashib tushgan qora kiyimi aza tamom bo‘lgandanso‘ng yechilguday bo‘lsa, uning quruqligi oshkor bo‘lib qoladi.”

Bu yerda siyah, ya’ni qora kiyib yurardi, so‘zi motam tutib yurmoq ma’nosida kelmoqda. Ya’ni holat rangga ko‘chgan.

Yuqorida ko‘ribo‘tganımızdek, metonimiya hodisasi asarda turli ko‘rinishlarda uchrab kelmoqda. Metafora va metonimiyadan tashqari sinekdoxaga ham e’tiborni qaratishimiz lozim. Turk tilshunosligida qismni anglatadigan so‘z

orqali qismning ifodalanishiga o'zbek va rus tilshunosligida bo'lgani kabi jiddiy yondashuv kuzatilmaydi. Ya'ni sinekdoxa metonimiya bilan birga olinib *iğretileme* deyiladi va metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishi hodisasiga *mecaz* deyiladi. Masalan, *ahir* deyilganda “*molning oxuri*” tushuniladi. *Ahırimdört ayak görmedi* jumlasida esa *ahir- molxona, dört ayak- sigir* ma'nosida kelgan. *Bu parayialnımın teriyle kazandım* jumlasida *alın teri (peshona teri)- halolmehnat* demakdir.

Turk tilida *Bana bıyığı çağır* jumlasidagi *bıyük* so'zi sinekdoxa hisoblanib, ushbu so'z aslida “*mo'y lab*”, lekin jumlada “*mo'y lab qo'ygan kishi*” ni bildirib kelgan.

Kishining nomini uning tashqi ko'rinishidagi belgi bilan aytish sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chish demakdir. Masalan, *beyazsaçlı (oqsoch), aksakallı (oqsoqol)* kabi.”<sup>18</sup> Yuqorida aytganimizdek, sinekdoxaga alohida e'tibor qaratilmaa ham, lekin ularni shartli ravishda ajratamiz. Chunki metonimiya hodisasi bilan birmuncha farqlarga egadir. Romanda keltirilgan sinekdoxaga misollarni ko'rsatib o'tishimiz lozim.

Masalan:

“Odada bir kahkahadır koptu. Başımı kaldırıldım ve *bütün gözlerin* bana baktığını gördüm.”

**Tarjimasi:**

“Uydagilarning hammasi sharaqlab kulib yubordi. Boshimni ko'tardim-u, hammaningko'zi menga tikilib turganini ko'rdim.”

Yuqorida keltirgan misolimizda, romanning asliy nusxasi, ya'ni turk tilida sinekdoxa hodisasi yuz bergen. Xonadagi kishilar butunlik parchaga ko'chish sifatida ko'z so'ziga ko'chgan. Lekin tarjimada sinekdoxa hodisasi sodir bo'lмаган.

Meva nomi bilan shu mevani beruvchi daraxtni nomlash ham sinekdoxaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bunday misollar asarda ko'p marta uchragan. Masalan:

---

<sup>18</sup>X.Hamidov,G.Rixsiyeva.Turk tili.Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.Toshkent, 2013,43-b.

“Bu iki haftayı geçirmek için Kozyatağı'na gittiğim zaman *kirazlar* yetişmiş, büyük bahçenin caddeye bakan yüzünü baştan başa kaplayan kiraz ağaçları yemişlerle donanmış bulunurdu. “

**Tarjiması:**

“Bu ikki haftalik ta’tilni o‘tkazishuchun Qo‘zyotog‘iga borganimda *giloslar* pishgan, katta bog‘ning ko‘chaga qaragantomonini boshdan-oxir to‘sib olgan daraxtlardagi *giloslar* chayqalib turgan bo‘ldi.”

Bu yerda meva nomi bilan shu mevani beruvchi daraxtni nomlash orqali sinekdoxaning bir ko‘rinishi hosil bo‘lgan.

### **2.3. “Choliqushi” va “O’tkan kunlar” romanlarida qo’llanilgan badiiy tasvir vositalarining qiyosiy tahlili**

“Choliqushi” va “O’tkan kunlar” romanlarida keltirilgan badiiy tasvir vositalarini ko’rib chiqar ekanmiz, bir savol tug‘iladi. Xo’sh, ularni bir-biriga qiyoslaganimizda o’rtaslarida qanday o‘xhashlik va farqli tomonlari bo‘ladi?

O‘zbek va turk adabiyotining bir-biriga o‘xhash tomoni, har ikki millat ham mentalitet, urf-odat jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Turkiy xalq hisoblangan bu ikki millatning o‘xhash tomonlari ularning adabiyotida ham aks etadi. Chunki adabiyot o‘sha xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, mentalitetining ko‘zgusidir. Iboralar, maqollardagi o‘xhashliklarni ham misol qilib ayta olamiz.

Bitiruv malakaviy ishimizda o‘rganilayotgan ikki asarda qo’llanilgan badiiy tasvir vositalarini qiyoslagan holda ana shu masalani ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “O’tkan kunlar” asarida qo’llanilgan badiiy tasvir vositasini “Choliqushi” romanida ham, aynan shu ma’noda kelganligini ko‘rishimiz mumkin:

“Yusufbek hoji hatmi Qur'on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi.”

“Choliqushi”da:

“Neriman’ın çok sevdiğini söyledikleri kocası bir sene evvel ölmüştü. Bunun için daima *siyah* giyerdi. Fakat bende öyle bir his vardı ki, *siyah* bu kadının sarışın çehresine çok iyi gitmese; matem devam etmeyecek, elbiseler takımıyla çöplüğe atılacaktı.”

#### **Tarjimasi:**

“Narimonning eri bundan bir yil avval o‘lgan. Narimon erini juda ham yaxshi ko‘rardi, deyishadi. Shuning uchun u hamisha qora kiyib yurar ekan. Lekin menga shunday tuyuldiki, buxotinning sarg‘imtir chehrasiga juda ham yarashib tushgan qora kiyimi aza tamom bo‘lgandanso‘ng yechilguday bo‘lsa, uning quruqligi oshkor bo‘lib qoladi.”

Bu yerda siyah, ya’ni qora kiyib yurardi, so‘zi motam tutib yurmoq ma’nosida kelmoqda. Demak, yuqoridagi ikki asardan keltirilgan har bir parchada

qora so‘zida metonimiya hodisasi yuz bergen va ularning har ikkisi ham motam ma’nosini bildirib kelmoqda.

Metonimiyaning zamon munosabatini bildiruvchi ko‘rinishida ham ikki asardagi misollar orasida o‘xshashlikni kuzatishimiz mumkin. Masalan “O‘tkan kunlar”da:

“Kumushbibi endi *o ‘n yettini* qo‘yib *o ‘n sakkizga* qadam bosqanliqdan bo‘yi ham onasiga yetayozqan, ammo jussasi onasig‘a ko‘ra to‘laroq edi. Onasining yumishig‘a bir oz qarab turg‘anidan keyin tashqarig‘a tomon ketdi.”

“Choliquushi”da:

“*On beşe* gidiyordum. Aşağı yukarı annelerimizin gelin oldukları, büyükannelerimizin “Aman evde kalıyoruz,” diye telaşla Eyüp'teki Niyet Kuyusu'na koştukları yaşı... “

**Tarjimasi:**

“Yoshim o‘n beshga qarab borardi. Hamma onalarimiz kelin bo‘lgan, buvilarimiz esa: “Voy, sho‘rim, uyda qolib ketyapsizlar!” deb hayajonga tushadigan va hazrati Ayyub qudug‘iga chopadigan yosh...”

Bu yerda metonimiyaning zamon munosabatini bildiruvchi ko‘rinishi yuz bergen va har ikki asarda ham bir xil ravishda foydalanilgan.

Badiiy tasvir vositalaridan metafora, metonimiya, sinekdoxalar uchraganida iki asarda deyarli o‘xshashliklarni kuatamiz. Biz yuqorida ko‘rgan misollarni solishtirsak, buning guvohi bo‘lamiz. “O‘tkan kunlar”da:

“Ma’lumingiz Toshkanddan uylanganimdan so‘ng *yolg’izboshimg’ā* ham Toshkanddan, ham Marg’ilondan ikki xotin ushlab turish og‘irliq qila boshladi.

*Yolg’iz boshim* (*tek başım*) birikmasi sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chgan birikma hisoblanadi, ya’ni qism orqali butunni ifodalab kelmoqda. İnson tana a’zosining bir qismi bo‘lgan *bosh* orqali butun bir shaxs nazarda tutilmoqda.”

Masalan:

“Odada bir kahkahadır koptu. Başımı kaldırıldım ve *bütün gözlerin* bana baktığını gördüm.”

### **Tarjimasi:**

“Uydagilarning hammasi sharaqlab kulib yubordi. Boshimni ko‘tardim-u, hammaningko‘zi menga tikilib turganini ko‘rdim.”

Badiiy tasvir vositalari dan biri hisoblangan o‘xshatishni asarlarda qiyoslaganimizda, ular orasidagi o‘xhashlik va farqlarni ham ko‘ra olamiz. Masalan “O‘tkan kunlar”da:

“Uning qora zulfi par yostig‘ning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... Qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan ohu kabi...”

### **“Choliqushi”da:**

“Kâmran’ın bana doğru geldiğini gördüğüm zaman ürkmüş bir *at gibi* patır patır kaçıyorum, arkamdan sapan taşı yetiştemiordu.”

### **Tarjimasi:**

“Komronning ro‘para kelayotganini ko‘rdim deguncha *hurkkan ot* singari potirlab qochar, shu ko‘yi ko‘rinish bermay ketar edim.”

Bu ikki asarda bir xil holat, bosh qahramon bo‘lmish qizlarning hurkib qochishi tasvirlangan. Faqat “O‘tkan kunlar” romanida Kumushning qochishini ohuga o‘xshatsa, “Choliqushi”da bosh qahramon Ferideni hurkak otga o‘xhatgan. Yozuvchilar bu o‘xhatishda bosh qahramonlarga nisbatan ikki xil yondashishgan. O‘zbek adabiyotini kuzatar ekanmiz, go‘zal qizlarni otga o‘xhatganini deyarli uchratmaymiz. Ko‘pincha, ohu, jayron kabi so‘zlar ishlatiladi. Lekin turk adabiyotida qizning otga o‘xhatilishini ko‘rib turibmiz. Buning ikki sababi bor:

Birinchidan, turk mentalitetiga xos bo‘lgan otga nisbatan qiziqish, uni go‘zallik timsoli sifatida qabul qilish desak ham bo‘ladi.

Ikkinchidan, “Choliqushi” romanining bosh qahramoni Feride o‘jar, boshqalarga bo‘ysunmaydigan, asov ot singari bir qizdir. Uning ohu kabi qochishi kitobxon tasavvurida g‘alizlik uyg‘otar edi. Shu sababli yozuvchi uning harakatlarini asov otning hurkib qochishiga o‘xhatadi. “O‘tkan kunlar” romani

bosh qahramoni Kumush esa ayollarga xos bo‘lgan noz, hayo, mayinlik, shu bilan birga, ojizlik xislatlarini o‘zida mujassam qilgan obrazdir. Shu sababli uni ohuga o‘xshatilishi tabiiy holdir. Feride esa buning aksidir. Albatta, turk adabiyotida ham *ceylan gibi* so‘z birikmasi ko‘p ishlatiladi. Demak, bundan shuni anglashimiz mumkinki, bu yerda Reshat Nuri Guntekin faqatgina badiiy tasvir vositasini qo‘llabgina qolmay, u yerda bosh qahramonning xarakterini ham inobatga olgan. Feride kabi o‘jar, qaysar, sho‘x qizning ohu kabi hurkib qochishi biroz haqiqatdan uzoq bo‘lar edi.

“Choliqushi” romani asar qahramonining tilidan hikoya qilinganligi sababli undagi tasviriy vositalarda subyektivlik sodir bo‘lgan. Chunki bosh qahramon o‘zining munosabati orqali kishilarni tasvirlaydi, voqealarga o‘zining dunyoqarashidan kelib chiqib baho beradi. Masalan badiy tasvir vositalaridan o‘xshatishni qo‘llaganida Feride Komronga nisbatan shunday munosabatda bo‘ladi:

“Fakat Allah'in kulu, bir gün bir parça canlan, kız, aksi bir şey söyle de kedi gibi boynuna atılarak seni tozun, toprağın içine yuvarlayayım; saçlarını çekeyim; *yilan gözlerine benzeyen yeşil gözlerini* parmaklarımla tehdit edeyim.”

### **Tarjimasi:**

“Hoy, ollohnning quli, qiz bolaga o‘xshab o‘tirmay bir oz jonlansang-chi, biron narsa desang-chi, ana shunda misoli mushukday bo‘yningga osilib, seni tuproqqa bulab tashlay, sochlaringni yulay, *ilon ko‘zlariga o‘xshagan yashil ko‘zlaringga* chang solay!” deb o‘ylayman.”

Aslida insonning ko‘zini ilonnikiga o‘xshatish o‘sha qahramonning salbiy qahramon sifatida kitobxon ko‘zida jonlantirish uchun qo‘llaniladi. Ilonning ko‘zi ayyorlikka to‘la ko‘zlar sifatida tasavvur qilinadi. Lekin bu yerda asar qahramoni tilidan hikoya qilinayotganligini hisobga olishimiz zarur. Feridening Komronga nisbatan bo‘lgan nafrati uning yashil ko‘zlarini ilonnikiga o‘xshatishiga sabab bo‘lgan. Bu yerda qahramonning salbiylici emas, balki bosh qahramonning o‘sha qahramonga nisbatan bo‘lgan munosabatini tasvirlash ustuvor ahamiyat kasb etgan.

“O’tkan kunlar” romanida esa quyidagi parchani kuzatib, boshqacha qarorga kelamiz:

“Ul yerdan bichib olg‘andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, *ko ‘zi qoqqan qoziq o ‘rnidek chup-chuqur*, og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlarchamasida bir xotin edi.”

Bu yerda salbiy qahramon Jannat tasvirlangan bo‘lib, uning ko‘zлари *qoqqan qoziq o ‘rnidek chup-chuqurqilib* tasvirlangan. Aslida *ilonning ko ‘zidek* hamda *qoqqan qoziq o ‘rnidekbadiiy* tasvir vositalari salbiy ma’noda keladi. Lekin asarning uslubiga ko‘ra bular bir-biridan farq qilmoqda. “O’tkan kunlar” romanida haqiqatda salbiy qahramon obrazи jonlantirilgan bo‘lsa, “Choliqushi” romanida esa bosh qahramonning boshqalarga nisbatan bo‘lgan munosabati tasvirlangan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy tasvir vositalari har bir asarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular yordamida asarning badiiy xususiyatlari yana-da takomillashadi, jozibadorligi oshib boradi. Bitiruv malakaviy ishida ana shu badiiy tasvir vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ikki mashhur asar: “Choliqushi” va “O‘tkan kunlar” romanlari misolida ko‘rib chiqdik. Olib borilgan tadqiqotdan, shuningdek, ushbu ikki asarni qiyoslagan holda o‘rganilgan ishdan kelib chiqib, shunday xulosaga kelindi:

Birinchidan, o‘zbek adabiyotshunosligida aniq ajratib ko‘rsatilgan badiiy tasvir vositalari turk adabiyotida ba’zida qo‘shilgan holda o‘rganiladi.

Ikkinchidan, turk va o‘zbek adabiyoti o‘rtasida yaqinlik mavjud bo‘lib, buni olib borgan tadqiqotimizdagи badiiy tasvir vositalari o‘rtasida o‘xshashliklarda kuzatdik. Bu o‘xshashliklar ikki xalqning ham o‘zagi bir bo‘lgani, tilning qardoshligi, mentalitetning yaqinligi tufayli ekanligi tahlil qilingan.

Uchinchidan, badiiy tasvir vositalari yozuvchi uslubidan, shuningdek, asar mohiyatidan kelib chiqqan holda o‘ziga xosligiga ega ekanligining guvohi bo‘ldik.

O‘zbek va turk adabiyotining bir-biriga o‘xshash tomoni, har ikki millat ham mentalitet, urf-odat jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Turkiy xalq hisoblangan bu ikki millatning o‘xshash tomonlari ularning adabiyotida ham aks etadi. Chunki adabiyot o‘sha xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, mentalitetining ko‘zgusidir. Iboralar, maqollardagi o‘xshashliklarni ham misol qilib ayta olamiz.

Bitiruv malakaviy ishimizda o‘rganilgan ikki asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini qiyoslagan holda ana shu masalani ko‘rib chiqdik. “O‘tkan kunlar” asarida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositasini “Choliqushi” romanida ham, aynan shu ma’noda kelganligini ta’kidlab o‘tdik. Bundan tashqari nafaqat o‘xshashliklar, balki ular orasidagi farqlarni ham kuzatgan holda, badiiy tasvir vositalarining ko‘لامi keng ekanligini guvohi bo‘ldik.

Badiiy tasvir vositalari nazariy jihatdan ma’lum bir qolipga solingan bo‘lsada, uning ma’nolari yozuvchining uslubiga qarab o‘zgarib boradi.

Umuman olganda, mana shu ikki mashhur asar o‘zining badiiy mahorati bilan bugungacha durdona asarlar qatoridan joy olib kelmoqda. Bu ikki asarning badiiy tilidagi badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo‘llanilishi asar saviyasini yanada oshirishga xizmat qilgan. “Choliquushi” va “O‘tkan kunlar” romanlario‘zbek va turk romanchiligining nodir asarlari hisoblanib, ulardagi badiiy til xususiyati eskirmas asar bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ikki asarda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini kuzatar ekanmiz, romanlarning ta’sir kuchini hamda saviyasini oshirishda katta rol o‘ynaganiga guvoh bo‘lamiz. Asarlarda metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, o‘xshatish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalilanilgan.

Bu ikki asarning bugunga qadar o‘lmas asarlar sifatida yashab kelishi ularning badiiy xususiyati yuksakligidan dalolat bermoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. -T.: "O'zbekiston", 2002.
3. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild -T.: "O'zbekiston", 1999.
4. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. -T.: "O'zbekiston", 2003.
5. Karimov. I.A. "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" risolasi. 2009.
6. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:Sharq, 1997.
7. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-jild.T.: "O'zbekiston",1996.

### **O'zbek tilida:**

8. Hamidov X.,Rixsiyeva G. Turk tili. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. –Toshkent, 2013.
9. Qodiriy A.O'tkan kunlar. roman, "Sharq" Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. –Toshkent, 2012. - 384 b.
10. Rashod N. G. Choliqushi. "Sharq" Nashr.-matbaa aksiyadorlik kom-si Bosh tahr-ti. –Toshkent, 2002.
11. Choriyeva Z. T.Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari.–Toshkent, 2006.

### **Turk tilida:**

12. Bilgin M. Anlamdan Anlatima Türkçe. -Ankara: "Antyaymcılık", 2006. - 680 s.
13. Demircan O. Türk Dili. -Papatya, 2003. -176 s.

14. Eker S. Çağdaş Türk Dili. -Ankara: “Grafiker”, 2002. -558 s.
15. Ergin M. Türk dili bilgisi. -İstanbul: “Bayrak”, 1993. -384 s.
16. Reşat N. G. Çalıkuşu. –İstanbul:“İnkılap”, 2010.

**Internet saytlar:**

17. <http://www.pegem.net/Akademı>
18. <http://www.toplumdusmani.net/modules/wordbook/entry.php?entryID=3966/mecaz-anlam-nedir+mecaz-anlam-ne-demek>
19. <http://www.haberturk.com/yasam/haber/656141-calikusunun-koyu-oluyor>
20. <http://www.uzmantv.com/calikusu-romaninda-feride-nasil-bir-karakterdir>